

# O'ZBEKISTONDA QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Axmedov Sheramat Umurxojayevich**

**Assistant, TKTI Shahrisabz filiali**

**Annotatsiya** Ushba maqolada chiqindilar, ularning turlari, qattiq chiqindilarning ekologiyaga salbiy ta'sirlari va oqibatlari yuzasidan olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va uning hozirgi kundagi ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** chiqindi, qattiq chiqindi, qattiq maishiy chiqindi, ekologik siyosat, ekologik barqarorlik, chiqindilarni boshqarish

## LEGAL FRAMEWORK FOR SOLID WASTE RECYCLING IN UZBEKISTAN

**Axmedov Sheramat Umurxojayevich**

**Assistant, TKTI Shahrisabz branch**

**Abstract:** This article describes the scientific research conducted by scientists on waste, their types, the negative effects and consequences of solid waste on ecology, and its importance today.

**Key words:** waste, solid waste, solid household waste, environmental policy, environmental sustainability, waste management

**Kirish** Bugungi kunda tabiat va atrof-muhitni himoya qilish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror ekologik rivojlanishni ta'minlash maqsadida davlatimiz tomonidan ekologik siyosat olib borilmoqda. So'ngi yillarda qattiq maishiy chiqindilar va ularning ekologiyaga ta'sirini kamaytirish uchun qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Xususan, "Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining 18.08.2023 yildagi reg. № MYu 3197-3 sonli buyrug'i, "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi "Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish" loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.11.2020 yildagi №748 sonli qarori, ["Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida](#) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni

muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 19.11.2019 yildagi reg. № MYu 3197 sonli buyrug‘i, “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2019 yildagi №PQ-4291sonli qarori, “Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish uchun to‘lovlarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.11.2018 yildagi №PF-5580 Farmoni shular jumlasidan. Ushbu olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni saqlash, har xil ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish va toza energiya manbalarini qo‘llab-quvvatlash, barqaror rivojlanishni ta‘minlashdan iborat.

**Metodlar** Tadqiqot jarayonida qiyosiy taqqoslash, sotsiologik so‘rovnoma, SWOT tahlili, monografik kuzatish, iqtisodiy tahlil qilish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanilgan.

**Natijalar** Qattiq maishiy chiqindilar-kundalik faoliyatlarimiz natijasida yuzaga keladigan, umumiy ifloslantiruvchi moddalar to'plamidir. Ular asosan ovqat qoldiqlari, qog'oz, plastik, shisha, metall, va boshqa materiallardan tashkil topadi. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, resurslarning isrofini kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladi. Qayta ishlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Ayrimlashtirish - chiqindilarni turli guruhlariga ajratish, masalan, organik, plastik, qog'oz va metal. Bu jarayon chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini yaxshilaydi.

2. Qayta ishlash jarayoni - qayta ishlash zavodlarida chiqindilarni qabul qilib, ularni yangi mahsulotlar yoki materiallarga aylantirish.

3. Qayta ishlangan mahsulotlar - qayta ishlash jarayonidan o'tgan materiallar yangi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish, masalan, plastik idishlar, qog'oz va karton mahsulotlari.

**Muhokamalar** Qattiq maishiy chiqindilarni chiqishi bugungi kunda ekologik muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, tabiiy resurslarni isrof qilish, atrof-muhitga zarar keltirish, chiqindilarni noto'g'ri tashlash va boshqarish suv, havo va

yerning ifloslanishiga olib keladi, chiqindilar to'plangan joylarda bakteriyalarni va zararli moddalarni tarqatishi inson organizmiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Qattiq maishiy chiqindilarni kamaytirish har bir fuqoroning va butun jamoatchilikning muhim vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun quyidagi strategiyalarni qo'llash mumkin:

✓ Xarid qilishda ehtiyotkorlik: Keraksiz mahsulotlarni xarid qilmaslik, ortiqcha qadoqlarni tanlamaslik va uzoq muddatli foydalanish uchun sifatli mahsulotlarni tanlash.

✓ Qayta ishlash: Chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatlarini o'rganish va ajratish. Masalan, qog'oz, plastik va metal chiqindilarni alohida yig'ish.

✓ Kompost tayyorlash: Oziq-ovqat qoldiqlarini organik chiqindilar sifatida kompostga aylantirish orqali ulardan foydalanish.

✓ Mavjud narsalarni yangilash: Uskunalar yoki kiyimlarni yangilashdan ko'ra, ularni qayta tiklash yoki ta'mirlash imkoniyatlarini ko'rish.

✓ Kamroq qadoqlangan mahsulotlarni tanlash: Ko'p qadoqlangan mahsulotlar o'rniga minimal qadoqlangan yoki qadoqsiz mahsulotlarni tanlang.

✓ Boshqalar bilan bo'lishish: Ehtiyojsiz buyumlar yoki o'yinchoqlarni boshqalarga berish yoki almashish jarayonini amalga oshirish.

✓ Foydalanilmaydigan narsalarni omborlash: Keraksiz buyumlarni fursatlarda joylar qidirib, omborlash yoki taqdim qilish orqali foydalanuvchilar o'rtasida baham ko'rish.

### **Xulosa**

Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanishda ahamiyatli. Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishda ayrimlashtirish (chiqindilarni organik, qog'oz, plastik, shisha va metall bo'yicha ajratib tashlash), qayta ishlash (qayta ishlash va ekologik ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash), ommaviy targ'ibot (odamlarni chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va to'g'ri tashlash bo'yicha targ'ibot qilish) kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish qonunchilik va normativ hujjatlarni takomillashtirish, ekologik ta'lim va targ'ibotni olib borish, barqaror texnologiyalarni rivojlantirish va uni amaliyotga joriy etish yo'nalishlarida olib borilishi tavsiya etiladi.

Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Qayta ishlash va boshqa foydalanish jarayonida qattiq chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatlari o'rganiladi. Bunda bo'sh qutilar, plastik, qog'oz va metalni ajratish va ularni qayta ishlanadigan joylarga topshiriladi.

2. Yig'ish va tashish jarayonida mahalliy hokimiyat va chiqindilarni boshqarish mutasaddi korxonalar bilan hamkorlikda chiqindilarni yig'ish va tashish jarayonlarida yo'l transporti tomonidan chiqindilarni samarali va xavfsiz tashish imkoniyatlari o'rganiladi.

3. Qayta ishlash jarayonida chiqindilarni qayta ishlash uchun kerakli uskunalar va texnologiyalar o'rnatiladi va qayta ishlash jarayonini optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlaridan chiqindilarni kamaytirish choralari ko'riladi.

4. Ommaviy targ'ibotda mahalliy hamjamiyatlar uchun chiqindilarni boshqarish bo'yicha ta'lim dasturlarini tashkil qilinadi, odamlarni chiqindilarni ajratish, qayta ishlash va kam chiqindi chiqarishni insonlar turmush tarziga kiritilishi haqida xabardor qilish.

5. Qayta foydalanish va ijodkorlik qobiliyatida yana foydalanilmayotgan buyumlarni qayta ishlatish yoki ijodkorlik bilan o'zgarishga jalb qilish. Bunda eski narsalarni qanday qilib yangilash yoki xizmatga qaytarish tadbirlarini amalga oshirishni izlab topish. Atrof-muhitni saqlash va resurslardan samarali foydalanish orqali ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishimiz va shu orqali ekologik barqarorlikka erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining buyrug'i, Qabul qilingan sana 18.08.2023, Kuchga kirish sanasi 19.08.2023;

2. [Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomaning 20-bandiga o'zgartirish kiritish haqida](#) O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qarori, reg № MYu 3197-2, Qabul qilingan sana 17.06.2021

3. [Osyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida](#) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, №748, Qabul qilingan sana 25.11.2020, Kuchga kirish sanasi 26.11.2020;

4. [Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida](#) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining qarori, reg № MYu 3197-1, Qabul qilingan sana 20.10.2020, Kuchga kirish sanasi 20.10.2020;

5. [Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash haqida](#) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, reg № MYu 3197, Qabul qilingan sana 19.11.2019, Kuchga kirish sanasi 20.11.2019;

6. 2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-4291, Qabul qilingan sana 17.04.2019, Kuchga kirish sanasi 18.04.2019;

7. Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish uchun to‘lovlarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-5580, Qabul qilingan sana 22.11.2018, Kuchga kirish sanasi 23.11.2018;

8. Fransiyaning taraqqiyot agentligi ishtirokida “Samarqand shahridagi qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishni modernizatsiyalash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, №PQ-3139, Qabul qilingan sana 19.07.2017, Kuchga kirish sanasi 25.07.2017.